
Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi o'tkazildi

Bugun Rishton tumani hokimligi majlislar zalida Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining navbatdagi 73-sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiya ishida tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimining o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalalarga aloqador mansabdor shaxslar ishtirok etdilar.

Bugungi sessiya kun tartibiga ikkita masalalar kiritildi. 1-masala: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarini o'tkazish uchun tuzilgan uchastka saylov komissiyasi tarkibiga nomzodlarni tavsiya etish to'g'risida Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining "Sud huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha" doimiy komissiya raisi B.To'ychievning axboroti.

2-masala: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-iyundagi "Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-222-sonli qaror ijrosi yuzasidan tuman hokimi o'rinbosari N.Oripovning axboroti tingaldi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan deputatlar tomonidan berilgan savollarga mas'ullar tomonidan javoblar berildi. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan qaror loyihalari deputatlar tomonidan tasdiqlandi.

2024-08-21 12:31:23